

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

GIPERTERMIYADA SHOSHILINCH YORDAM.

Ro'ziyeva Nasiba Djunaytovna.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh
o'qituvchisi

Muxiddinov Xusniddin Muxiddinovich.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh
o'qituvchisi

Zayniddinova Zarina Sharofiddinovna.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi bosh
o'qituvchisi

Anatosiya. Ushbu maqolada gipertermiya [giper... va yun. therme – issiq], organizmning qizishi, issiq elitishi – odam va hayvon organizmida ortiqcha issiqlik to'planishi, haroratning juda yuqori bo'lishi. Tashqi omillar (masalan, haroratni nihoyatda yuqori bo'lgan i. ch. korxonalari, tashqi muhit sharoitlari) yoki bosh miya kasalliklari (miya shikastlari, miyaga qon qo'yilishi, o'sma paydo bo'lishi), issiqlikni nazorat qilish markazining izdan chiqishi (q. Termoregulyasiya) sabab bo'ladi. Agar tana harorati 41-42° ga yetsa, issiq elitishi kuzatiladi, bunda moddalar almashinuvi, qon aylanishi, miyaning kislorod bilan ta'minlanishi va boshqa(lar) faoliyatlar izdan chiqadi. Mushaklarning zo'riqishi, mastlik, narkoz (asorati) holatlarida ham gipertermiya ro'y berishi mumkin. Gipertermiyani o'z vaqtida oldini olish va o'z vaqtida tez yordam choralari ko'rish, davo muolajalarini o'tkazish bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Gipertermiya, termometr, simobli termometr, elektron termometr, infraqizil termometr, harorat, subfebril harorat, isitma.

Kirish: Ushbu maqolada biz sizni gipertermiyada harorat stadiyalari va gipertermiyada tez tibbiy yordam ko'rsatish choralari va termometr turlari bilan tanishtirib o'tamiz

1. Subfebril harorat - 37 – 38C
2. O'rtacha harorat - 38 – 39C
3. Yuqori harorat - 39-41C
4. Gipertermik harorat – 41C dan yuqori

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

| Gipertermiya turi | Mexanizmi | Belgisi |
|--------------------|---|--|
| Qizil gipertermiya | Issiqlikni ishlab chiqarish, issiqlikni yo`qotish bilan teng bo`ladi | 1.Teri ozgina qizargan iliq va nam bo`ladi. 2.Bemorni umumiy holati uncha o`zgarmaydi. |
| OQ gipertermiya | Issiqlikni ishlab chiqish yo`qotishdan baland bo`ladi. Periferik qon tomirlar torayib qoladi. | 1.Sovuq qotadi, titraydi 2.Teri oq rangda 3.Lab va tirnoqlar ko`karadi 4.Bemorni oyoqlari muzlaydi. |

1.Kattalar va bolalarda gipertermiyada tana haroratini tushirishda fizik usullarni qo'llash.

2. Gipertermiyaga qarshi moddalarni organizmga kiritish kerakligi haqida so'z

yuritiladi.

Materiallar va usullar:

Tadqiqotlar metodikasi:Zamonaviy ilmiy maqolalar,kasallik holatlari va zamonaviy tadqiqot ishlari tahlil qilindi."Gipertermiyada shoshilinch yordam" mavzusidagi so'ngi innovasion davo usullari haqidagi oxirgi yillarda chop etilgan ilmiy manbalar o'rganildi.

Nazariy asos:

Gipertermiyada qo'llanilayotgan zamonaviy davo muolaja usullari va qanday kasalliklar gipertermiyaga sabab bo'lishi mumkinligi va gipertermiyada ko'rsatiladigan tez yordam choralari va davo muolajalarini o'z vaqtida samarali qo'llashga qaratildi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

Тана haroratini to'g'ri o'lchash uchun termometrdan foydalanish usullari

Tana haroratini o'lchash uchun termometrning uchta turi mavjud – simobli, elektron va infraqizil kabilarni uchratish mumkin. Albatta, ular bir-biridan vazifaviyligiga ko'ra farq qiladi.

Simobli termometr

Ko'pgina mamlakatlarda simobli termometrlardan foydalanishga taqiq qo'yilgan. Uning o'rnini hozirda galliy, indiy va qalay moddalari egallagan. To'g'ri ularning narxi simoblilarga qaraganda ikki baravar qimmat. Ammo undan foydalanish inson uchun hech qanday xavf tug'dirmaydi.



Simobli termometr ko'pchilikka tanish bo'lib, hamisha isitma kuzatilganda, qo'ltiq ostida 5-10 daqiqa ushlab turilib, shundan so'ng harorat aniqlanadi. Ammo aslida haroratni simobli termometr yordamida o'lchash unchalik oson emas.

Buning uchun quyidagi ketma-ketlik bajarilishi kerak:

- Simobli termometr maksimal haroratni ko'rsatadi, shuning uchun uni 5 daqiqa emas, 10 daqiqa ushlab turish kerak.
- To'g'ri natijani olish uchun qo'ltiq osti quruq va toza bo'lishi shart. Shuningdek, teri yuzasida krem yoki dezodarent vositalari surilmagan bo'lishi lozim.
- Termometrni ishlatishdan avval uni silkitilishi kerak. Shundan so'ng uchi teriga mahkam bosiladi. Agar u qo'ltiq sohasida erkin tursa va havo oqimi kirsam, termometrdagi ko'rsatkich to'g'ri bo'lmaydi.
- Bundan tashqari simobli termometrlar ko'proq bolalar haroratini o'lchashda foydalanilganligi uchun juda ham ehtiyot bo'lish kerak.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

Elektron termometr

Bolalar ushbu turdagi termometrni juda yaxshi ko'radi, chunki harorat o'lchanganidan so'ng ovoz chiqaradi. Ushbu termometr xavfsiz bo'lishiga qaramay, haroratni ko'rsatishda xatolikka yo'l qo'yishi ham mumkin.



Agar elektron termometr ovoz chiqarganidan so'ng darhol olib qo'yilsa, ko'rsatkichda xatolik yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun signaldan keyin 2-3 daqiqa davomida ushlab turish tavsiya etiladi. Ushbu termometr orqali og'izdagi haroratni o'lchashdan avval issiq, sovuq narsa iste'mol qilish mumkin emas. Bunday vaqtda xona haroratidagi oziq-ovqatlarni tanovul

qilish mumkin.

Infraqizil termometr

Infraqizil termometrda ham xatoliklar bo'lishi tabiiy. Ayniqsa, undan foydalanishdan avval uzatgich artilmagan bo'lsa. Ushbu qurilmada xatolik elektron va simobli termometrga qaraganda nur uzoq masofani bosib o'tganligi sababli yuzaga keldi. Shunga qaramay, infraqizil termometrning bir qancha afzalliklari ham mavjud:



Bemor odam foydalanadi, ammo unga tegmaydi.

- Termometr xotirasi harorat o'zgarishi dinamikasining ko'rish imkonini beradi.

- Qurilma o'zida 8-50 tagacha o'lchovlarni saqlaydi.

- Ayrim

modellarda o'lchov yakunlanganini xabar qiluvchi signallar mavjud.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

- Bu kabi termometrlar haroratga qarab rang bilan kodlanadi.
- Haroratni o'lchash vaqtida bemorni bezovta qilmaslik uchun signal va nurni o'chirib qo'yish mumkin.

- Quvvatni tejash uchun qurilma avtomatik tarzda o'chiriladi.

Qanday bo'lmasin termometrlarda harorat o'lchanganida, uni muntazam yozib borish tavsiya etiladi.

Amaliy tadqiqotlar: "Gipertermiyada shoshilinch tez yordam" da davo muolajalari usullari o'rganildi. Kasallik xavf omillarini aniqlash va davo samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy tibbiyot texnologiyalarning qo'llanilishi tahlil qilindi.

Natijalar: Klinik belgilari, diagnostikasi va davosi. Gipertermiyada kasalliklarda asosan kuzatiladigan simptomlar: tana haroratining ko'tarilishi, holsizlik, issiqlikni ishlab chiqish yo'qotishdan baland bo'ladi. Periferik qon tomirlar torayib qoladi, sovuq qotadi, titraydi, teri oq rangda, lab va tirnoqlar ko'karadi, bemorni oyoqlari muzlashi bilan xarakterlanadi.

Tana haroratini uy sharoitida tushirish usullari

Isitma – yuqori harorat atamasi bo'lib, organizmning virus yoki bakteriyalarga qarshi kurashish uchun immun tizimiga bo'lgan munosabatidir. Isitma shamollash, tumov, turli xil emlash va yana bir qancha sabablarga ko'ra ko'tarilishi mumkin.

Agar tana harorati yuqori bo'lsa nima qilish kerak?

1. Birinchidan, haroratning darajasi aniqlanib, alomatlarni baholash zarur. Agar termometr ko'rsatkichi 38 va undan yuqori darajani ko'rsatsa, bunga jiddiyroq e'tibor berish kerak. Qo'ltiq osti sohasi esa 37 darajadan keyin o'sishni aniqlaydi.

2. Iloji boricha o'rindan turmaslik va dam olish tavsiya etiladi. Sababi tana infeksiyaga qarshi kurash olib bormoqda. Va bu jarayonda tanani ortiqcha zo'riqtirmaslik zarur.

3. Tananing suvsizlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ko'proq oddiy suv, choy yoki suyultirilgan sharbat ichish terlash natijasida yo'qotilgan suyuqlik o'rnini to'ldirishga yordam beradi. Agar ichish biroz qiyinchilik tug'dirsa, muz bo'laklarini vaqti-vaqti bilan tana qismlariga qo'yib, eritish mumkin.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

4. Shuningdek, harorat tushirishning yana bir samarali usuli – isitma tushiradigan dori vositalaridir. Lekin dozani oshirib yubormaslik zarur. Ayniqsa, bir vaqtning o'zida bir necha xil isitma tushiruvchi dori vositalarini qo'llash aslo mumkin emas. 6 oygacha bo'lgan chaqaloqlarga ibuprofenli dori bermaslik kerak. Shu bilan birga, o'spirin va kattalar esa aspirinni shifokor reseptisiz qabul qilishi mumkin emas.

5. Bemor ustidagi issiq kiyimlarni va o'ranib yotgan yopinchiqlarni biroz kamaytirishi hamda tanani biroz sovishiga imkon berishi muhim.

6. Iliq vanna, tanani namlangan mato bilan artish yoki sovuq kompresslar ham yordam beradi. Agar alomatlar kuchaygudek bo'lsa, shifokorga murojaat qilish zarur.

Munozara:

Zamonaviy davolash usullarining samaradorligi: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki "Gipertermiyada shoshilinch yordam"da o'z vaqtida ko'rsatilgan tibbiy yordam va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, gripp va shamollash alomatlari kuzatilgan bemorlarga jamoat joylarida yurmaslik va zamonaviy davo usullarini qo'llash ko'plab asoratlarni oldini olishga imkon beradi.

Xulosa: "Gipertermiyaga ya'ni isitmaga"ga sababchi bo'luvchi omillarni oldini olish va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini to'g'ri shakllantirish va bemorlarga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yish davo muolajalar kursini o'z vaqtida o'tkazish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti www.moodle.sammi.uz sayti.
2. A.K. Jamolov, B.N. Toshmamatov, N.J. Ro'ziyeva, M.A. Rasulova "Tez tibbiy yordam va favqulodda holatlar tibbiyoti" Toshkent-2024y "Nurli qalblar"
3. O'.O. Oripov, Sh.N. Karimov "Umumiy xirurgiya" Toshkent-2008 "Yangi asr avlodi"
4. A.M. Ubaydullayev "Nafas organlari kasalliklari" Toshkent-2000
5. Po'latova Sh.A., Saidova X.X. "Kattalarda hamshiralik parvarishi" II qism, Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti, 2014 yil.